Hol va uning ifodalanishi

Ismoilova Nodira Usmonjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Odilova Munisa Olimjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi.

Annotatsiya. Bugungi kunda ona tilini chuqur o‘rganish va grammatik bilimlarni mustahkamlash ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ushbu mavzu O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan ta’lim sifati, yosh avlodning savodxonligini oshirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi vazifalar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Tilshunoslikka oid nazariy bilimlarni amaliy misollar asosida o‘rganish o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqola o‘quvchilar, talabalar hamda ona tili va adabiyot faniga qiziquvchilar uchun foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Hol, gap bo‘laklari, ravish holi, payt holi, o‘rin holi, sabab holi, o‘zbek tili sintaksisi.

Annotation. Today, deep learning of the native language, strengthening grammatical knowledge, and developing students’ speech culture are considered important tasks of the education system. In this regard, the topic “Adverbial Modifier and Its Expression” is of particular importance. The types of adverbial modifiers, including manner, time, place, cause, and purpose modifiers, are analyzed with examples. In addition, information is provided about the expression of adverbial modifiers through adverbs, nouns, verbal adverbs, and postpositional constructions. This article can serve as a useful source for pupils, students, and those interested in the Uzbek language and literature.

Keywords. Adverbial modifier, parts of sentence, modifier of manner, modifier of time, modifier of place, modifier of cause, Uzbek syntax.

Аннотатсия.В настоящее время глубокое изучение родного языка, укрепление грамматических знаний и развитие речевой культуры учащихся являются одними из важнейших задач системы образования. В этом отношении тема «Обстоятельство и способы его выражения» имеет особое значение. Данная тема тесно связана с задачами, определёнными в Законе Республики Узбекистан «Об образовании», такими как повышение качества образования, развитие грамотности молодёжи, формирование навыков самостоятельного и свободного мышления. Глубокое изучение родного языка играет важную роль в развитии устной и письменной речи учащихся.Также приводятся сведения о выражении обстоятельства с помощью наречий, существительных, деепричастий и послеложных конструкций. В статье раскрывается роль обстоятельства в обогащении содержания предложения, его связь со сказуемым, а также значение в точном, выразительном и логичном изложении мысли.

Ключевые слова.Обстоятельство, члены предложения, обстоятельство образа действия, обстоятельство времени, обстоятельство места, обстоятельство причины, синтаксис узбекского языка.

Kirish. O‘zbek tilida gap bo‘laklari muhim grammatik vositalardan biri hisoblanadi. Gapning mazmunini to‘liq va aniq ifodalashda ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘rni katta. Shunday bo‘laklardan biri — holdir. Hol ish-harakatning qanday, qayerda, qachon, nima sababdan yoki qanday maqsadda bajarilganini bildiradi.. Gapning mazmunan to‘liq, mantiqan aniq va uslubiy jihatdan ravon bo‘lishida

bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning vazifasi beqiyosdir. Hol gapning ikkinchi darajali bo‘laklaridan biri bo‘lib, ish-harakatning bajarilish holati, o‘rni, payti, sababi, maqsadi va tarzini bildiradi. Hol ishtirok etgan gaplar mazmun jihatdan boy, tushunarli va ta’sirchan bo‘ladi. Shu sababli hol va uning ifodalanishini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi.Bugungi kunda ta’lim tizimida ona tilini puxta o‘qitishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni[1]da yosh avlodni bilimli, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ona tili fanining o‘rni katta. Chunki grammatik bilimlarni egallash orqali o‘quvchilar fikrni aniq, mantiqli va ravon ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Asosiy qism. Hol haqida umumiy tushuncha.O‘zbek tili sintaksisida gap bo‘laklari bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajratiladi. Ega va kesim bosh bo‘laklarni tashkil etsa, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol ikkinchi darajali bo‘laklar hisoblanadi. Hol gapdagi ish-harakatning bajarilish sharoitini, belgisini yoki sababini bildiruvchi ikkinchi darajali bo‘lakdir. Hol ko‘pincha kesimga bog‘lanib keladi va harakatning qanday, qayerda, qachon, nima sababdan yoki nima maqsadda sodir bo‘lganini ifodalaydi. Shu jihatdan hol gap mazmunini to‘ldirib, fikrning aniq va tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi.Tilshunos olimlarning fikricha, hol gapning mazmuniy jihatdan kengayishida muhim vosita hisoblanadi. Agar gapda hol qatnashmasa, ayrim hollarda fikr noaniq yoki umumiy bo‘lib qoladi. Masalan, “Talaba yozdi” gapida faqat harakat ifodalangan. “Talaba kecha kutubxonada insho yozdi” gapida esa payt va o‘rin holi orqali fikr yanada aniq ifodalangan.Holning grammatik xususiyatlari.

Holning asosiy grammatik belgilaridan biri uning kesim bilan bog‘lanishidir. Hol ko‘pincha fe’l kesimga tobelanadi. Gap tarkibida holning ishtiroki harakatning turli belgilarini ifodalash imkonini beradi. Hol odatda quyidagi savollarga javob bo‘ladi:qanday?qachon?qayerda?

nima sababdan?nima maqsadda?

Masalan:O‘quvchi diqqat bilan tingladi.Biz ertaga sayohatga chiqamiz.

U kasalligi sababli darsga kelmadi.Ushbu gaplarda “diqqat bilan”, “ertaga”, “kasalligi sababli” birikmalari hol vazifasini bajargan.

Holning turlari:Ravish holi

Ravish holi ish-harakatning qanday bajarilganini bildiradi va “qanday?”, “qay tarzda?” kabi savollarga javob bo‘ladi. Ravish holi ko‘pincha ravish so‘z turkumi bilan ifodalanadi. Misollar:Bola sekin yurdi.U ehtiyotkorlik bilan gapirdi.

Xulosa.Hol gapning mazmunini boyituvchi muhim ikkinchi darajali bo‘lak hisoblanadi. U ish-harakatning turli belgilarini ifodalab, nutqning aniq va tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Holning turlari va ifodalanish usullarini o‘rganish o‘zbek tili sintaksisini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.Hol gapning mazmunini boyituvchi muhim ikkinchi darajali bo‘lak hisoblanadi. U ish-harakatning turli belgilarini ifodalab, nutqning aniq va tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Holning turlari va ifodalanish usullarini o‘rganish o‘zbek tili sintaksisini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston respublikasi Prezidentining ,,Ta’lim to’g’risidagi’’ qonuni.2020

[1] O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ,,Ta’lim to’g’risidagi’’ qonuni

2.Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. — Toshkent, 2010.

3.G‘ulomov A. O‘zbek tili grammatikasi. — Toshkent, 2008.

Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. — Toshkent, 2012.

4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent, 2020.ish holi sifat yoki otlashgan so‘zlar orqali ham ifodalanishi mumkin:U jim holda o‘tirdi.

5. O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. - N. Erkaboyeva „Yosh kuch” 2021.